

## QORAQOLPOG'ISTON TUPROQ IQLIM SHAROITIDA SARIMSOQ PIYOZNING NAVLARINI KO'PAYTIRISH

***Yunusov Salohiddin Ahmadovich***

*TDAU "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik" kafedrası professori, q.x.f.f.d*

*sherimovdilshodbek1@gmail.com*

***Sherimov Dilshodbek Shavkat o'g'li***

*QQXAI "Mevachilik, sabzavotchilik va uzumchilik" kafedrası tayanch doktoranti*

*sherimovdilshodbek71@gmail.com*

***To'rayeva Gulzira Muzaffarovna***

*QQXAI "Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik" ta'lim yo'nalishi talabasi*

*Gulziraturayeva9@gmail.com*

**ANNOTATSIYA.** Nav o'simlikning biologik xususiyati va ma'lum bir iqlim mintaqasida yetishtirishni ta'minlaydi. Navlarni o'z hududidan boshqa hududlarda yetishtirish esa o'sha sharoitda uning chidamliligini orttiradi. Sabzavot ekinlaridan yuqori va sifatli mahsulot olishni nav aniqlaydi. Hosildor va tovarbopligi yuqori navlarni iqlimlashtirish orqali samarali natijalar olinadi. Doimiy ravishda navlar almashinuvini olib borish bo'lsa qishloq xo'jaligida samaradorlikning yuqori bo'lishiga olib keladi. Olimlarning fikricha, eski navlarga nisbatan hosildorlik 10-30 % ga ko'p bo'lish aniqlangan.

**KALIT SO'ZLAR.** Iqlimlashtirish, nav, duragay, ko'paytirish, sarimsoq, klon, agrotexnika, chidamlilik, vegetativ ko'paytirish.

Сорт обеспечивает биологические особенности растения и его выращивание в определенном климатическом регионе. Выращивание сорта на территориях, отличных от его собственного ареала, в этом случае повышает его устойчивость. Сорт определяет высокое качество овощных культур. Эффективные результаты дает акклиматизация высокоурожайных и товарных сортов. Регулярный обмен

сортами приводит к повышению продуктивности сельского хозяйства. По оценкам ученых, урожайность на 10-30% выше, чем у старых сортов.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА.** Акклиматизация, сорт, гибрид, размножение, чеснок, клон, агротехника, устойчивость, вегетативное размножение.

The variety ensures the biological characteristics of the plant and its cultivation in a certain climatic region. Cultivation of varieties in areas other than its own area increases its resistance in that case. The variety determines the high quality of vegetable crops. Effective results are obtained by acclimatization of high-yielding and marketable varieties. Regular exchange of varieties leads to higher productivity in agriculture. According to scientists, the yield is 10-30% higher than the old varieties.

**KEY WORDS.** Acclimatization, variety, hybrid, reproduction, garlic, clone, agrotechnics, resistance, vegetativ propagation.

**KIRISH** Qishloq xo'jaligi sohasi xalqimiz uchun oziq ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy manbadir. Ayni vaqtda qishloq xo'jaligining 27% da aholi mehnat qiladi. Mamlakatimizda har yili 16-20 mln tonnaga yaqin meva-sabzavot yetishtirilmoqda. Aholi jon boshiga qariyb 300 kg sabzavot, 75 kg kartoshka va 44 kg uzum to'g'ri keladi. Bu xalqaro normalarga ko'ra maqbul deb hisoblanadigan iste'mol me'yoridan uch barobarga ko'pdir. Bu ko'rsatkichlarni yildan yilga orttirib borishda respublikamiz qishloq xo'jaligi imkoniyatlari yetarli. Qoraqolpog'iston tuproq iqlim sharoitida asosiy sabzavot ekinlari navlarining yetishmasligi bo'lsa hududning eksport salohiyatini oshirish va geografiyasini kengaytirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda sabzavot ekinlarining kasallik va zararkunandalarga chidamli, yuqori hosilli, mahsulot sifati yuqori, tashqi muhitning noqulay ob havo sharoitiga chidamli xilma xil navlari iqlimlashtirilmoqda va ekin maydonlari kengaytirilmoqda. Sarimsoq piyoz – qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan, talab yuqori hisoblangan sabzavotdir.

Sarimsoq eng qimmatli foydali sabzavotlardan biri. Turli ovqatlarga, salatlariga qo'shib iste'mol qilinadi va sabzavotlarni qayta ishlash sanoatida keng qo'llaniladi. Uning tarkibida efir moylari va fitonsidlar bakteriyalarga qarshi kurashishda ishlatiladi. U xalq

xo'jaligida beqiyos ahmiyatga egadir. Qadimdan sarimsoq xalqlar tomonidan yetishtirilgan va o'zining shifobaxsh xususiyatlari, o'zgacha ta'mi va parxezbopligi tufayli unga doimo talab katta bo'lgan. [2;117-122-b,], [3. 233-b].

O'zbekistonda O'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining sabzavot, poliz ekinlari genetik resurslari bo'limida sarimsoqning 30 dan ortiq mamlakatlardan keltirilgan 200 ga yaqin namunalari tirik holda saqlab kelinmoqda. Respublikamizda sarimsoqning oltita navi Davlat reestriga kiritilgan bo'lib, bular qishki muddatda ekishga mo'ljallangan va gul novda chiqaradigan navlar hisoblanadi.

Bugungi kunda sarimsoq piyozning Qoraqolpog'iston tuproq iqlim sharoitida Yujno fioletoviy, Mayskiy VIRa kabi faqat ikkita navi dehqon, fermer va tomorqa yer egalari xo'jaliklarida yetishtirilib kelinmoqda. Shundan eng ko'p hosil Yujno fioletoviy navi hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Mayskiy VIRa - sobiq butunittifoq o'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutining O'rta Osiyo tajriba stantsiyasida mahalliy navlardan tanlash yo'li bilan yaratilgan. 1978 yildan Davlat reestriga kiritilgan. Ertapishar nav. Bargining rangi och yashil, eni 3 sm, piyozbosh shakli yumaloq. Quruq po'sti qobig'i 2-3 ta, binafsha rangda. Piyozchalar soni 15-18 ta, rangi sarg'ish. Hosildorligi 11-13 t/ga, piyozboshining o'rtacha vazni 18-20 g, ta'mi achchiq. O'suv davri 99-103 kun. Ayrim belgilari: qurg'oqchilikga, sovuqqa chidamli, lekin uzoq vaqt yaxshi saqlanmaydi. Zararkunanda va kasalliklarga chidamli.

Yujno-fioletoviy -xalq seleksiyasi navi, 1972 yildan respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Piyozbosh vazni 30-38 g, shakli yassi yumaloq, undaga piyozchalar soni 8-10 ta. Piyozchalari seretli, och sariq, yirik. Tashqi quruq po'sti qobig'i binafsha rangda. Ta'mi yarim achchiq, saqlanuvchanligi o'rtacha. Hosildorligi 8-10 t/ga. [4; 51-b.].

Hozirda sabzavot ekinlarining navlarini ko'paytirishda ilmiy tadqiqot markazlarining o'rni katta. Ularning oldida yo'qolib borayotgan sabzavot ekinlarining navlarini ko'paytirish, hududlardagi xo'jaliklarni navlar bilan boyitish bugungi kunning talabidir. Surxondaryo viloyatida joylashgan Sabzavot ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutida ham yuqoridagi ishlar jadal amalga oshirilmoqda. SPE va KITI

Surxondaryo ilmiy tajriba stantsiyasida sarimsoqning mahalliy va chet eldan keltirilgan 30 dan ko'proq navlari hamda 240 ta klon sinash bog'chasida o'rganilib eng istiqbolli bo'lgan K-4, K-6, K-14 klonlari ajratib olingan. 2008-2009 yillarda tanlov sinovidan o'tkazilgan. Tadqiqotlar natijasida Chidamli navi yaratildi. [1; 289–290-b.].

Qoraqolpog'iston tuproq iqlim sharoiti uchun mos bo'lgan sarimsoq piyozning nav namunalarini olib kelib iqlimlashtirish bo'yicha samarali ishlar tashkil etildi. Qoraqolpog'istonning Amudaryo tumanida ushbu ekinning 18 ta navi olib kelib tajriba maydoniga joylashtirildi hamda sinov ishlari boshlandi. Hozirda barcha navlardan to'liq ko'chat olingan, dastlabki agrotexnik tadbirlar amalga oshirilgan. Albatta bu keltirilgan namunalar bizning sharoitga moslashadigan bo'lsa kelajakda sabzavotchilikda o'simliklarni maqbul ekish muddatlari va ekish sxemalarining ishlab chiqilishi, keyinchalik takomillashtirilib borilsa sarimsoq piyoz navlarining ko'payishiga olib keladi. Bunda sarimsoq piyoz navlari Qoraqolpog'iston tuproq iqlim sharoitida yangi bo'lgan navlar ajratiladi, ularning morfobiologik xususiyatlari o'rganiladi va botanik tavsiflanadi. Introduksiya qilingan navlar keyinchalik Qoraqolpog'iston respublikasi hududidagi ilg'or fermer, dexqon xo'jaliklariga tarqatiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Amanova M.E., Qosimova M., Rustamov B. Sarimsoq piyozning istiqbolli namunalari. //O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarining ustunligi. Xalqaro ilmiy-amaliy konf. Toshkent., 2016. -B. 289-290-b.
2. Belik V.F., Sovetkina B.E. Sarimsoq piyoz. // Овощные культуры и технология их возделывания В.О. Агропромиздат. Moskva., 1991. -233 - b.
3. Simonov A.S. Чеснок один из наиболее ценных видов овощей. // Овощеводство и плодоводство. Агропромиздат, Moskva., 1986. 117-122-b.
4. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat reestri, Toshkent., 2017. 51- b.